

**Biturayev O‘.B. – TDSHI “Jahon siyosati va xalqaro munosabatlar” kafedrasini o‘qituvchisi**  
**Abduraimov Q.Sh. – TDSHI Jahon siyosati yo‘nalishi talabasi**

## **JANUBIY OSIYODA MINTAQAVIY MUAMMOLARNING ASOSIY KO‘RINISHLARI**

**Kalit so‘z va iboralar:** Kashmir muammosi, Dyurant chizig‘i, yadro qurollari, etnik-diniy nizolar, fundamentalizm.

**Ключевые слова и понятия:** кашмирская проблема, линия Дюранда, ядровое оружие, этнико-религиозные распри, фундаментализм.

**Key words and concepts:** Kashmir problem, Durand line, sound weapons, ethnic-religious conflicts, fundamentalism.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Markaziy va Janubiy Osiyoning geosiyosiy mintaqasi sifatida shakllanishi, yetakchi davlatlar tomonidan o‘z manfaatlari to‘qnashuv va geosiyosiy raqobat maydoniga aylantirilganligi, ikki mintaqaning bog‘lanish nuqtasida “afg‘on muammosi”ning mavjudligi, mintaqaviy xavfsizlik tizimi uchun katta xavf manbasi sifatida namoyon bo‘lganligi borasida so‘z yuritilgan. Tadqiqotchi tahlil jarayonida Janubiy Osiyo va uning Markaziy Osiyo bilan chegara zonasida mana shunday global muammo va tahdidlarning saqlanib qolayotganligi, kuch markazlari o‘rtasidagi raqobatning kuchayishi ikki mintaqada davlatlarining o‘z xavfsizlik siyosati qayta shakllantirishga yo‘naltirilganligi maqolada har taraflama yoritgan.

**Аннотация:** В данной статье раскрывается вопрос о формировании Центральной и Южной Азии в качестве геополитического региона, плацдарма столкновения интересов и геополитической конкуренции ведущих государств, наличии «афганской проблемы» в точке соприкосновения двух регионов и ее роли в качестве большой угрозы для региональной безопасности. Исследователь в ходе анализа осветил вопрос о сохранении такой глобальной проблемы в пограничной зоне Южной и Центральной Азии, и угроз увеличения конкурентности между силовыми центрами для формирования государствами своей политики безопасности.

**Annotation:** This article reveals the question of formation Central and South Asia as the geopolitical region, bridgehead for the clash of interests, as well as, geopolitical competition of leading states, the presence of “Afghan problem” at the point of contact between two region and its role as a big threat to the regional security. The researcher in the analysis highlighted the issue of preserving such a global problem in the border zone of South and Central Asia, and threats of increasing competition between power centers for the formation of states by their security policies.

Janubiy Osiyo tarixda va bugungi kunda xalqaro munosabatlar tizimida o‘ziga xos o‘ringa ega mintaqasi sanaladi. XIX asrdan boshlab mintaqaga nisbatan

Gʻarbning yetakchi mustamlakachilari qiziqishlari ortib borgan. Buyuk Britaniya, Rossiya, Fransiya va Germaniya oʻrtasida mintaqaga egalik uchun kurash kuchaygan. XX asrning 80 yillaridan boshlab sobiq Ittifoqning Afgʻonistonga kirishi va bugungi kunda AQShning mintaqadagi taʼsirining ortib borishi buni isbotlaydi.

Janubiy Osiyo mintaqasi bir qator geostrategik xususiyatlarga ega mintaqadir. Xususan, Janubiy Osiyo janubda Hind okeani bilan, gʻarbda Yaqin Sharq mintaqasi bilan, sharqda Xitoy va Janubiy-Sharqiy Osiyo mintaqasi bilan, shimolda Markaziy Osiyo mintaqasi bilan chegaradosh davlat sanaladi. Tabiiy resurslarga boy va dunyo okeaniga chiqishning keng imkoniyatlari mavjuddir. Hozirda Janubiy Osiyo mintaqasi siyosiy jihatdan 8 davlatdan iborat: Afgʻoniston, Bangladesh, Butan, Maldiv Respublikasi, Nepal, Pokiston, Hindiston va Shri Lanka. Geografik jihatdan mintaqaga Eronning sharqiy qismi, Xitoyning Tibet muxtor oʻlkasi tegishlidir. Janubiy Osiyoda dunyo aholisining beshdan bir qismi joylashgan va eng aholi zich mintaqalar sanaladi.

Hindiston subkontinetni 4,4 million km.kv. hududga ega boʻlib, Osiyoning 10%, jahonning 3,3% hududini tashkil etadi. Osiyoning 34% aholisi mazkur mintaqada istiqomat qiladi<sup>i</sup>.

Janubiy Osiyo mintaqasi yildan yilga iqtisodiy oʻsish jadallashib bormoqda. Biroq Janubiy Osiyo mintaqasi oʻzining iqtisodiy rivojlanishi va madaniy boy tarixi bilan birgalikda jahonning XXI asrdagi turli koʻrinishdagi nizolarga va bir qator global muammolarga boy mintaqalaridan biri sanaladi.

Mintaqada bir qator hozirga qadar oʻz yechimini topmagan muammolar mavjud<sup>ii</sup>:

- Kashmir muammosi;
- Dyurand chizigʻini tan olish masalasi;
- yadro qurollari va texnologiyalarining yoyilish muammosi;
- keng koʻlamli etnik-diniy nizolar;
- suv resurslaridan foydalanishdagi nizolar;
- qashshoqlik, ocharchilik va savodsizlik holatining saqlanib qolishi va boshqalar.

Bundan tashqari A.V.Torkunov tahriri ostida chop etilgan “Zamonaviy xalqaro munosabatlar” oʻquv qoʻllanmasida keltirilishicha, Janubiy Osiyodagi muammolar sifatida: diniy tafovutlar va mintaqadagi barcha davlatlarda fundamentalizmning yoyilishi; Hindistonning psixologik jihatdan oʻtmishda periferiyalarni boshqargan mintaqaning markaz davlati sifatida qabul qilinishi; turli milliy qadriyatlar, anʼanalarning mavjudligi; mamlakatlar oʻrtasida siyosiy tizim, iqtisodiy taraqqiyot borasida katta farqning saqlanib qolinayotganligi keltirgan<sup>iii</sup>.

Mazkur muammolar xususiyati va zamonaviy xususiyatlarini anglamasdan turib, Janubiy Osiyo mintaqasida xavfsizlik holatini tahlil etish va istiqbolini bashorat qilish mushkil sanaladi. Shu jihatdan, Janubiy Osiyo mintaqasidagi asosiy muammolar, barqarorlikni taʼminlashga salbiy taʼsir etuvchi omillar qatoriga quyidagilarni keltirish mumkin:

Birinchi, Hindiston va Pokiston oʻrtasidagi Kashmir- hududiy nizosi. 1947 yil Kashmir rojasi Xari Singx yilning 26 oktyabrida Kashmirning Hindistonga

qoʻshilishi borasida maxsus bitim tuzadi, ammo Pokiston bu bitimni tan olmaydi va natijada bu ikki davlat oʻrtasidagi 1947-1948 yillardagi qurolli toʻqnashuvga sabab boʻladi<sup>iv</sup>. 1949 yil 1 yanvarda tuzilgan hind-pokiston bitimi kashmirni ikki qismga ajratib yuboradi. Pokiston aholisi 3 million kishi tashkil qilgan va hududi 78 ming kvadrat kilometrdan iborat boʻlgan Ozod Kashmirni oʻz hududiga qoʻshib oldi. Hindiston oʻz navbatida, taxminan, Jammu va Kashmirning 5 million aholisi va hududining 60%, yaʼni 140 ming kvadrat kilometr hududga ega boʻldi.

Bugungi kunda Hindiston va Xitoy oʻrtasidagi ikki munozarali hudud: Aksay Chin va Arunachal Pradeshdir. Arunachal Pradesh Hindistonning uzoq sharqida, Aksay Chin esa Hindistonning shimoliy-gʻarbga yaqin, Xitoy, Hindiston va Pokistonning tutashgan yerida joylashgan. Maʼlumki, 1960 yillardan beri Xitoy tomonidan Hindistonga tegishli Kashmir hududining (Aksay Chin rayoni) 38 000 kv.km qismini bosib olganligi tufayli Hindiston daʼvo qilmoqda, oʻz navbatida Xitoy ham 90 000 kv.km maydondagi Hind shtati hisoblangan Arunachal Pradeshga boʻlgan daʼvosini bildirmoqda. Bu esa 1962 yilgi ikki oʻrtasidagi toʻqnashuvga olib kelgandi<sup>v</sup>.

Yana bir munozarali hudud bu Sikkim va Tibet qirolliklaridir. 1975 yilda Sikkim qirolligi Hindiston tomonidan egallab olingan edi, Xitoy esa hozirgacha bu hududni mustaqil davlat hisoblab keladi. 2003 yilda ikki davlat oʻrtasida oʻzaro hududiy tan olish sodir boʻlgandi: Hindiston hukumati Tibetni Xitoyning daxlsiz bir qismi deb, Xitoy hukumati ham Sikkimni Hindistonning bir qismi sifatida tan olgan edi<sup>vi</sup>.

Ikkinchidan, mintaqada yetakchilik uchun kurashda Hindiston va Pokiston oʻrtasidagi yadroviy qurollanish poygasi, ommaviy qurollarning yoyilish tendensiyasining mavjudligi. Hindiston va Pokiston harbiy qurollanishi sobiq Ittifoq va AQSh tomonidan ragʻbatlantirildi. Ikki davlat oʻzaro harbiy qurollanishda va harbiy-texnikaviy hamkorlikda Islomobod asosiy oʻrinni Xitoy va AQShga ajratgan boʻlsa, Hindiston harbiy kuchlarida Rossiya texnikasi 60-80% tashkil qiladi<sup>vii</sup>. Hindiston Rossiyadan 1960-2004 yillar oraligʻidan jami 33 mlrd. AQSh dollari miqdorida qurol-yarogʻ sotib olgan.

Uchinchidan, Afgʻonistondagi beqarorlik va hokimiyat uchun kurashning uzoq yillar davomida hal etilmayotganligi.

Toʻrtinchidan, Janubiy Osiyo jahonning eng yirik narkotik moddalar yetishtiradigan va tranzit qiladigan mintaqaga aylanib qolganligi. Bu oʻrinda Afgʻonistonda jahonda yetishtirilayotgan narkotik moddalarning 90%dan ortigʻi yetishtirilmoqda.

Beshinchidan, turli terroristik va ekstremistik guruhlarning Janubiy Osiyoda chuqur ildiz otganligi va atrofdagi mintaqalarga tahdid sifatida baholanishi. Janubiy Osiyo davlatlari oʻrtasidagi hamkorlikni rivojlanishiga toʻsqinlik qiluvchi yana bir omil-diniy geterogenlik. Mintaqada asosan islom, induizm, jaynizm, buddaviylik va sikkizm dinlari katta taʼsirga ega. Janubiy Osiyo davlatlarning oʻrtasida Afgʻoniston, Pokiston, Maldiv va Bangladeshda islom dini yetkachi mavqega ega boʻlsa, Butan va Shri Lankada buddizm, Hindiston va Nepalda esa induizm diniga mansub aholi

istiqomat qiladi. Ushbu davlatlarning barchasida diniy fundamentalizm o‘sib borishi muammoning yanada murakkablashuviga olib kelmoqda.

Ma’lumki, hozirda Janubiy Osiyoda 2000 ortiq etnik birliklar yashaydi va ular o‘rtasidagi nizolar jiddiy xavf sanaladi.

Oltinchidan, qashshoqlik, toza ichimlik suvlari yetishmasligi va savodsizlik darajasining yuqoriligi, resuslar uchun mintaqa davlatlari o‘rtasidagi kurash. Pokistonning Hindiston tomonidan Baglixar suv omborining barpo etilishiga qarshi noroziligi yoki Bangladesh va Hindiston o‘rtasida Ganga daryosi yuqori oqimida Hindiston tomonidan suv omborini tashkil etish masalasidagi kelishmovchiligi shular jumlasidandir<sup>viii</sup>.

Xulosa qilib aytganda, Markaziy va Janubiy Osiyoning geosiyosiy mintaqa sifatida shakllanishi yetakchi davlatlarning manfaatlari to‘qnashuv va geosiyosiy raqobat maydoniga aylantirdi. Ikki mintaqaning bog‘lanish nuqtasida “afg‘on muammosi”ning mavjudligi mintaqaviy xavfsizlik tizimi uchun katta xavf manbasiga aylandi. Janubiy Osiyoda va uning Markaziy Osiyo bilan chegara zonasida mana shunday global muammo va tahdidlarning saqlanib qolayotganligi, kuch markazlari o‘rtasidagi raqobatning kuchayishi ikki mintaqa davlatlarining o‘z xavfsizlik siyosati qayta shakllantirishga yo‘naltirmoqda.

---

<sup>i</sup> Indian Subcontinent. Encyclopedia of Modern Asia. Macmillan Reference USA (Gale Group). 2006// <http://www.bookrags.com/research/indian-subcontinent-ema-03/>

<sup>ii</sup> Wagner C. Security Cooperation in South Asia: Overview, Reasons, Prospects // SWP Research Paper. –Berlin. – 2014. –P.9-11.

<sup>iii</sup> Торкунов А.В. Современные международные отношения. –М., 1999. –С.178.

<sup>iv</sup> Бугунги кунда Кашмир масаласида Ҳиндистон ва Покистон ўртасида тўрт маротаба йирик урушлар бўлиб ўтган. 1947-48, 1964-65, 1971 ва 1999 йиллар.

<sup>v</sup> Шаумян Т. Индийско-китайская граница: перспективы урегулирования проблемы. //Азия и Африка сегодня, – 2001. –№ 9. –С.27-32.

<sup>vi</sup> Дюшебаев А. Конфликты и соперничество между Китаем и Индией.//<http://www.easttime.ru/analitic/3/8/851.html> - 12.06.2013.

<sup>vii</sup> Арбтаров А. Движущая сила региональной безопасности. Отношения между Индией, Китаем и Пакистаном // Международная жизнь. –М. –2000. –№3. –С.46-48.

<sup>viii</sup> Pattanaik S.S. Making sense of regional cooperation: SAARC at twenty. // Institute for Defence Studies Analysis, New Delhi /Strategic Analysis. –2006. –Vol.30. –N.1. –P.21-24.